



www.isft.uz

**“ISFT” ILMUY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL**

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

IJTIMOIY FANLAR

BENCHMARKING – STRATEGIK VA INQIROZGA QARSHI BOSHQARUVNING SAMARALI USULI SIFATIDA

Dilshod Axmedov¹

O’zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri o’rinbosari

KALIT SO’ZLAR

benchmarking, marketing, moliyaviy ko’rsatkichlar, monopoliya, qiyosiy tahlil, raqobat, strategiya, taqqoslash, xarajat.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

бенчмаркинг, маркетинг, финансовые показатели, монополия, сравнительный анализ, конкуренция, стратегия, сравнение, затраты.

KEY WORDS

benchmarking, marketing, financial indicators, monopoly, comparative analysis, competition, strategy, comparison, costs.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada strategik va inqirozga qarshi boshqaruvning samarali usuli bo’lmish benchmarking tadqiq etilgan. Maqolada benchmarking kompaniyalarning eng yaxshi tajribalarini aniqlash va joriy etish uchun muvaffaqiyatlairoq kompaniyalarning (xoh bir sohada bo’lsin, xoh global miqyosda) samaradorlik ko’rsatkichlari va texnologiyalarini qiyosiy tahlil qilish mexanizmi sifatida o’rganildi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуется инструмент бенчмаркинга как эффективный метод стратегического и антикризисного управления. В статье рассматривается бенчмаркинг как механизм сравнительного анализа показателей и технологий более успешных компаний (как в одной отрасли, так и в глобальном масштабе) для выявления и внедрения лучших практик компаний.

ABSTRACT

This article examines benchmarking as an effective method of strategic and crisis management. The article explores benchmarking as a mechanism for the comparative analysis of performance indicators and technologies of more successful companies (both within one industry and on a global scale) to identify and implement the company’s best practices.

Kirish. Marketing tadqiqotlarining alohida yo’nalishi sifatida benchmarking asoschilari yaponiyaliklar bo’lib, ular Amerika va Yevropa davlatlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarini tadqiq qilish orqali o’zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash amaliyotini joriy etganlar, so’ngira shunga o’xshash mahsulotlarni o’zlarida arzonroq narxda ishlab chiqarish, ya’ni boshqa korxonalarining yutuqlaridan qonuniy ravishda nusxa ko’chirish yo’li orqali yutuqqa erishganlar. Shu bilan birga, yapon ishlab chiqaruvchilari

nafaqat bir sohada yangi texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishdi, balki *nou-chauni* bir ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohasidan boshqasiga ham o’tkazishdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada metodologiya sifatida hujjatlar tahlili va qiyosiy tahlil usullari qo’llanildi. Hujjatlar tahlili orqali benchmarking instrumentiga oid nazariy va amaliy ma’lumotlar o’rganildi. Qiyosiy tahlil yordamida esa turli kompaniyalar va sohalarning benchmarking amaliyotlari solishtirildi. Bu

yondashuvlar benchmarkingning turli ko‘rinishlari va ularni muvaffaqiyatli qo‘llash usullarini aniqlashga yordam berdi.

Natijalar. Bizning fikrimizcha, benchmarking – bu eng ilg‘orlar bilan to‘xtovsiz raqobatlashish natijasidagi doimiy takomillashuv va optimallashuv jarayoni.


Biz qisqacha ushbu maqolada benchmarkingni amalga oshirish usuli va amalga oshirilayotgan sohaga ko‘ra tasniflanishini ko‘rib chiqamiz. Bir qator adabiyotlarda Benchmarking taqqoslanayotgan narsaga qarab, jarayon benchmarkingi, samaradorlik va strategik taqqoslash sifatida tasniflanadi. Benchmarkingning quyidagi uchta turi farqlanadi:

1) Jarayon benchmarkingi – jarayonni taqqoslash bo‘lib, alohida ish jarayonlari va operatsion tizimlar bilan bog‘liq. Jarayonlar yoki operatsiyalar benchmarking sheriklarining jarayonlari yoki operatsiyalari bilan solishtirish orqali yaxshilanadi.

2) Ishlab chiqarish benchmarkingi – samaradorlikni taqqoslash. Bu kompaniyaning boshqalarga nisbatan qanchalik yaxshi ekanligini aniqlash uchun samaradorlik ko‘rsatkichlarini taqqoslashdir. U mahsulot va xizmatlar atributlarini taqqoslash orqali tashkilotning raqobatbardosh mavqeyini ta’minlaydi.

3) Strategik benchmarking – strategik taqqoslash. Bu kompaniyaning strategik yo‘nalishini o‘zgartirishga harakat qilganda olib boriladigan tadqiqot [1]. Shunday qilib, strategik taqqoslash operatsion masalalarni emas, balki strategik masalalarni baholashni o‘z ichiga oladi.

Mahalliy olimlarimizdan M.M. Toshpo‘latov va Q. A. Sharipovlar esa benchmarkingning 7 ta standart uslublarini sanab o‘tadilar, bu uslublar bilan quyidagi rasmda tanishib chiqishimiz mumkin (1-rasm):



1-rasm. Benchmarkingning standart uslublari

Umuman olganda, fikrimizcha, benchmarkingning turli mualliflar tomonidan tavsiflanishidagi 3 ta tur asosiy hisoblanib, ular:

- strategik benchmarking;
- jarayonlar benchmarkingi;
- faoliyat yoki raqobatbardoshlik benchmarkingi.

Qolgan turlar esa mana shu turlarning biri yoki hammasi taqqoslanish ko‘lamiga ko‘ra ajratilgan. Fikrimiz dalili sifatida, M.M. Toshpo‘latov va Q.A. Sharipovlarning tasnifidagi 3 ta asosiy tur bilan qolganlarini ifodalashga harakat qilamiz. Jumladan, ichki benchmarking bir korxonaning tizimli bo‘limlari orasidagi solishtirishlarni o‘z ichiga oladi, bunda jarayon, strategik va/yoki faoliyat benchmarkingidan foydalaniadi. Tashqi benchmarkingda esa raqobatchi sifatida boshqa korxona olinadi, xalqaro benchmarking esa raqobatchi sifatida boshqa davlatlarning korxonalari tanlab olinganda qo‘llaniladi.

Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, benchmarking taqqoslanish ko‘lamiga ko‘ra 4 turda bo‘linadi (ichki, raqobat, funksional va global) va bular quyidagi rasmda bataysil keltirib o‘tilgan (2-rasm):

Ichki benchmarking	<ul style="list-style-type: none">Kompaniyaning ichidagi eng yaxshi tajriba bilan taqqoslash
Raqobat benchmarkingi	<ul style="list-style-type: none">Eng muvaffaqiyatli raqobatchi bilan taqqoslash
Funksional (sanoat) benchmarkingi	<ul style="list-style-type: none">Bir xil texnologik sohada tegishli ishlarni bajaradigan boshqa korxonalar bilan taqqoslash
Global (sanoatdan tashqari) benchmarking	<ul style="list-style-type: none">Bozor ko‘rinishi va sanoat korxonasidan qat‘iy nazar, eng zo‘r tajribalar bilan taqqoslash

2-rasm. Benchmarking ko‘rinishlari

1. Ichki benchmarking – bir korxona doirasidagi faoliyat va jarayonlar solishtiriladi.
2. Raqobatchilar benchmarkingi – bu bir xil sohada faoliyat olib boruvchi o‘zaro raqobatchi korxonalarni taqqoslaydi.
3. Funksional benchmarking – bu funksiyalari o‘xshash ammo, faoliyat sohalari turlicha bo‘lgan korxonalarni solishtiradi.
4. Global benchmarking – bu faoliyat turi ham funksiyalari ham turlicha bo‘lgan korxonalarni taqqoslaydi va eng ilg‘or tajribalarni boshqa sohalarda qo‘llanilishi imkonini yaratadi.

Qizig‘i shundaki, turli nomlar va tasniflarga qaramay, benchmarkingning barcha turlari jarayonlarni samaradorlikni oshirish nuqtayi nazaridan tekshirishga qaratilgan. Buning sababi shundaki, yuqori natijalarga erishish uchun jarayon, strategiya va faoliyat orqali sodir bo‘luvchi ilg‘or korxonalarning transformatsiyasini chuqur tushunish kerak.

Benchmarking instrumenti orqali taqqoslanayotgan obyektlar turlicha bo‘lishi mumkin (3-rasm). Ularning bittasi yoki bir nechtasini kombinatsiya qilib, shu asosda benchmarking parametrlari va ko‘rsatkichlarini aniqlaymiz.

Benchmarking obyektiiga ko‘ra turli	Mijozlarga xizmat ko‘rsatish darajasini taqqoslash
	Axborot texnologiyalarini taqqoslash
	Mahsulot xususiyatlarini taqqoslash
	Mahsulot sifatini taqqoslash
	Xodimlarni rivojlantirish va o‘qitishni taqqoslash
	Biznes jarayonlarini boshqarish benchmarkingi
	Samaradorlikni baholash benchmarkingi
	Ishlab chiqarish benchmarkingi
	Xarajatlar benchmarkingi
	Xodimlarni boshqarish va yollash benchmarkingi
	Boshqalar

3-rasm. Benchmarkingning obyektiiga ko‘ra tasnifi

Rivojlanayotgan mamlakatlarda benchmarking tushunchasini amalga oshirishga oid bir nechta empirik tadqiqotlarni topishga muvaffaq bo‘ldik. Singapurdagagi 89 ta sanoatda o‘tkazilgan so‘rovda benchmarking natijasida erishilgan asosiy afzalliklar mijozlar qoniqishini oshirish, yetkazib berishning javob muddati va operatsiyalarning ishonchliligi ekanligi aniqlangan. Misrdagi 215 ta tashkilotni qamrab olgan shunga o‘xshash tadqiqotda raqobatdosh ustunlikni saqlab qolish va oshirish, rentabellikni oshirish va doimiy yaxshilanishga erishish benchmarkingni amalga oshirishning asosiy afzalliklari ekanligini ko‘rish mumkin. Biroq, benchmarkingning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi ba’zi muhim omillarga bog‘liq. Malayziyadagi 68 ta sanoatni o‘z ichiga olgan so‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, benchmarkingning samarali amalga oshirilishiga xodimlarning ishtiroti va yuqori boshqaruv majburiyatları bilan birgalikda o‘qitishga ta’sir qiladi.

Muhokama va xulosalar. Demak, biz ushbu maqolada benchmarkingni turlari, ularni qo‘llash usullari to‘g‘risida mavjud adabiyotlarni tahlil etgan holda qisqacha tadqiqotlarimizni bayon etdik. Benchmarking instrumenti mamlakatimizda



www.isft.uz

**“ISFT” ILMUY-USLUBIY JURNAL
“ISFT” НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
“ISFT” SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL**

ISSN: 3030-329X

2024/1-son



www.jurnal.isft-ilm.uz

korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda eng samarali usullardan biri bo‘lishini hisobga olib

undan foydalanishni yo‘lga qo‘yishni tavsiya etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Anderson K. and McAdam R. Reconceptualising benchmarking development in UK organisations: the effects of size and sector // International Journal of Productivity and Performance Management, 2007. – Vol. 56. – № 7. – PP. 538-558.
2. Тошпўлатов М.М., Шарипов К.А. Махсулот сифатини бошқаришда сифат фалсафаси. – Т: Фан ва технологиялар, 2013. – 391 б.
3. Corbett L.M. Benchmarking manufacturing performance in Australia and New Zealand // Benchmarking for Quality Management & Technology, 1998. – Vol. 5. – № 4. – PP. 271-282.

4. Bhutta K.S., Huq F. Benchmarking best practices: an integrated approach // Benchmarking: An International Journal, 1999. – Vol. 6. – № 3. – PP. 254-268.

5. Hinton M., Francis G. and Holloway J. Best practice benchmarking in the UK // Benchmarking: An International Journal, 2000. – Vol. 7. – № 1. – PP. 52-61.